



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TO'LOV BALANSI, XALQARO INVESTITSIYAVIY MAVQEI VA TASHQI QARZI



Bu qanday
nashr?

Ushbu nashr 2025-yil I chorak uchun O'zbekiston to'lov balansi, xalqaro investitsiyaviy mavqei hamda tashqi qarzi bo'yicha ma'lumotlarni o'z ichiga olib, Xalqaro valyuta jamg'armasining "To'lov balansi va xalqaro investitsiyaviy mavqe bo'yicha qo'llanmasi"ning oltinchi nashriga (TBQ 6-son, XVJ, 2009-y.) hamda "Tashqi qarz statistikasi bo'yicha qo'llanma"ga (2013-y.) muvofiq tayyorlangan.

Ma'lumotlar qaysi
sanaga dolzarb?

Ushbu nashrda keltirilgan statistik ma'lumotlar 2025-yil 30-iyun holatiga dolzarb hisoblanadi.

Ma'lumotlarni
qayerdan olish
mumkin?

To'lov balansi, xalqaro investitsiyaviy mavqei hamda tashqi qarzi bo'yicha tahliliy va standart ko'rinishdagi statistik jadvallar O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining <http://www.cbu.uz/> va XVJning <http://data.imf.org/> veb-saytlari orqali taqdim qilinmoqda.

Nashrga taalluqli
savol va takliflar
bo'yicha qanday
murojaat qilish
mumkin?

O.O. Tojiddinov

*Valyutani tartibga solish va to'lov balansi departamenti
direktori*

(+998) 71 212-60-38

o.tojiddinov@cbu.uz

Sh.X. Xayitboyev

To'lov balansi boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari

(+998) 71 212-60-42

sh.khayitboev@cbu.uz

Shuningdek, savollar va takliflar qo'shimcha ravishda val@cbu.uz elektron pochta manziliga yuborilishi mumkin.

QISQACHA SHARH

2025-yilning I choragi davomida global miqyosda savdo siyosatining keskinlashishi va fragmentatsiya jarayonlarining kuchayishi bo'yicha iqtisodiy xatar va noaniqliklarning yanada ortishi fonida O'zbekistonning an'anaviy eksport mahsulotlari jahon narxlarining yuqori darajada saqlanib qolishi kuzatildi. Shuningdek, mazkur davrda tashqi mehnat migratsiyasi va turizm yo'nalishlarida o'tgan yil davomida kuzatilgan ijobiy tendensiyalar saqlanib qoldi.

Hisobot choragida **joriy operatsiyalar hisobi 160,7 mln dollar** manfiy saldo bilan shakllandi (2024-yilning I choragida 2,1 mlrd doll).


Savdo balansining manfiy saldosi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 34 foizga qisqarib, 2,6 mlrd dollarni tashkil qildi. Bu eksport hajmining yuqori sur'atlarda o'sishi sharoitida importning deyarli o'zgarishsiz saqlanib qolishi bilan izohlanadi.

Xususan, **jami eksport hajmi 22 foizga** oshib, qariyb **8 mlrd** dollarni tashkil qilgan bo'lsa, **jami import hajmi 10,5 mlrd** dollar atrofida shakllandi.

2025-yilning I choragi davomida O'zbekistonga kelib tushgan xalqaro pul o'tkazmalar hajmining o'sishi **birlamchi** va **ikkilamchi daromadlar** balansini ijobiy saldo (mos ravishda 148,9 mln doll va 2,2 mlrd doll) bilan shakllanishiga sabab bo'ldi.

Joriy operatsiyalar hisobi komponentlari

YalMga nisbatan foizda



Joriy operatsiyalar hisobi taqchilligi to'g'ridan-to'g'ri, portfel va boshqa investitsiyalar jalb qilinishi hisobiga moliyalashtirildi.


Jumladan, 2025-yilning I choragi davomida mamlakatga **to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning sof kiritilishi**¹ 2024-yilning mos davriga nisbatan qariyb 2 barobarga o'sib, 752,3 mln dollarga teng bo'ldi.

Portfel investitsiyalarning sof jalb qilinishi asosan xalqaro obligatsiyalar bilan bog'liq operatsiyalar hisobiga 1,5 mlrd dollarni tashkil qildi.

Yuqoridagi tarkibiy omillar hisobiga 2025-yilning I choragi yakuni bo'yicha **moliyaviy hisob** manfiy saldosini **791,1 mln** dollarni tashkil etdi.

Moliyaviy hisob komponentlari

YalMga nisbatan foizda



Hisobot davrida **xalqaro zaxira aktivlarining** xorijiy valyutadagi qismi 1,8 mlrd dollarga ko'payishi kuzatildi. Shuningdek, oltin jahon narxining yuqori sur'atlarda o'sishi natijasida xalqaro zaxiralar qoldig'i joriy yil boshiga nisbatan qariyb 6,7 mlrd dollarga ko'payib, 2025-yilning 1-aprel holatiga **47,9 mlrd** dollarni tashkil qildi.

To'lov balansida aks etgan amaliyotlar va nooperatsiyaviy o'zgarishlar ta'sirida O'zbekistonning **sof xalqaro investitsiyaviy mavqe**i joriy yil boshiga nisbatan **24 foizga** mustahkamlanib, 2025-yil 1-aprel holatiga **17,2 mlrd** dollarga yetdi.

¹ To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bo'yicha ma'lumotlar Xalqaro valyuta jamg'armasining qo'llanmasiga (TBQ 6-son, XVJ, 2009-y.) muvofiq sof hajmlarda (investitsiya kiritilishi va repatriatsiyasi o'rtasidagi saldo) aks ettiriladi.

Bunda, rezidentlarning chet el valyutasidagi aktivlari hajmi yil boshiga nisbatan 7,9 mlrd dollarga (8 foiz) hamda tashqi majburiyatlari hajmi 4,6 mlrd dollarga (5 foiz) ko'paydi.

Hisobot choragi yakuniga ko'ra, **umumiy tashqi qarz** hajmi **68,4 mlrd** dollarni tashkil qilib, shundan davlat tashqi qarzi hajmi 35,8 mlrd dollar² hamda korporativ tashqi qarz hajmi 32,6 mlrd dollarga teng bo'ldi.

Ma'lumot uchun: korporativ tashqi qarz tarkibida xususiy sektor, jumladan tadbirkorlik subyektlari tomonidan davlat kafolatisiz jalb etilgan tashqi qarzlar aks ettiriladi. Shu o'rinda, XVJ hamda xalqaro reyting agentliklari bayonotlarida O'zbekistonning tashqi qarz yuki o'rtacha darajada ekanligi (asosan imtiyozli shartlarda olingan) e'tirof etilgan.

Markaziy bank O'zbekiston to'lov balansi, xalqaro investitsiyaviy mavqei va tashqi qarz ko'rsatkichlarini shakllantirish doirasidagi hamkorlik uchun tegishli vazirlik, idora va boshqa tashkilotlarga o'z minnatdorchiligini bildiradi.

² XVJning TBQ 6-son qo'llanmasiga muvofiq davlat tashqi qarzi qoldig'i hisoblangan, lekin to'lanmagan foizlarni ham o'z ichiga oladi.

1-ilova. 2023-2025-yillarning I choraklari uchun to'lov balansi
(tahliliy ko'rinishi)

(mln dollar)

Ko'rsatkichlar	2023-yil I chorak	2024-yil I chorak	2025-yil I chorak
A. Joriy operatsiyalar hisobi saldosi	-1 179,0	-2 051,7	-160,7
Tovarlar, kredit (eksport)	4 981,8	5 331,4	6 261,0
Tovarlar, debet (import)	7 687,2	8 063,4	7 646,5
Xizmatlar, kredit (eksport)	986,8	1 203,2	1 713,6
Xizmatlar, debet (import)	1 784,4	2 369,0	2 884,9
<i>Savdo balansi saldosi</i>	<i>-3 503,0</i>	<i>-3 897,8</i>	<i>-2 556,7</i>
Birlamchi daromadlar, kredit	1 350,1	1 406,3	1 405,4
Birlamchi daromadlar, debet	720,8	1 010,8	1 256,5
<i>Savdo balansi va birlamchi daromadlar saldosi</i>	<i>-2 873,7</i>	<i>-3 502,3</i>	<i>-2 407,8</i>
Ikkilamchi daromadlar, kredit	1 917,7	1 692,1	2 506,0
Ikkilamchi daromadlar, debet	222,9	241,5	259,0
B. Kapital operatsiyalari hisobi	1,2	0,3	0,8
Kapital operatsiyalar hisobi, kredit	1,2	0,3	0,8
Kapital operatsiyalar hisobi, debet	0,0	0,0	0,0
<i>Joriy operatsiyalar hisobi va kapital operatsiyalar hisobi saldosi</i>	<i>-1 177,8</i>	<i>-2 051,4</i>	<i>-160,0</i>
C. Moliyaviy hisob (oltin-valyuta zaxiralaridan tashqari)	333,2	-625,5	-2 621,0
To'g'ridan to'g'ri investitsiyalar, aktivlar	9,6	4,7	3,5
To'g'ridan to'g'ri investitsiyalar, majburiyatlar	203,9	380,1	752,3
Portfel investitsiyalar, aktivlar	0,2	0,0	0,0
Kapitalda ishtirok etish instrumentlari va investitsion fondlarning pay/aksiyalari	0,2	0,0	0,0
Qarz instrumentlari	0,0	0,0	0,0
Portfel investitsiyalar, majburiyatlar	14,9	-485,1	1 542,3
Kapitalda ishtirok etish instrumentlari va investitsion fondlarning pay/aksiyalari	2,9	-18,6	2,9
Qarz instrumentlari	12,0	-466,5	1 539,4
Hosilaviy moliyaviy instrumentlar (oltin-valyuta zaxiralaridan tashqari)	0,5	0,0	0,0
Hosilaviy moliyaviy instrumentlar, aktivlar	0,0	0,0	0,0
Hosilaviy moliyaviy instrumentlar, majburiyatlar	-0,5	0,0	0,0

Ko'rsatkichlar	2023-yil I chorak	2024-yil I chorak	2025-yil I chorak
Boshqa investitsiyalar, aktivlar	883,3	361,1	1 152,9
Kapitalda ishtirok etishning boshqa instrumentlari	0,4	0,0	0,0
Qarz instrumentlari	882,9	361,1	1 152,9
Markaziy bank	0,0	0,0	0,0
Depozit tashkilotlari, Markaziy bank bundan mustasno	-611,0	84,4	-50,0
Davlat boshqaruv sektori	-7,0	-4,0	-4,5
Boshqa sektorlar	1 500,8	280,7	1 207,5
Boshqa moliyaviy tashkilotlar	0,0	0,0	0,0
Nomoliyaviy tashkilotlar, uy xo'jaliklari va UXXKNT	1 500,8	280,7	1 207,5
Boshqa investitsiyalar, majburiyatlar	341,6	1 096,2	1 482,7
Kapitalda ishtirok etishning boshqa instrumentlari	0,0	0,0	0,0
MQH taqsimlanishi	1,0	-0,2	-0,5
Qarz instrumentlari	340,6	1 096,4	1 483,2
Markaziy bank	0,0	0,0	0,0
Depozit tashkilotlari, Markaziy bank bundan mustasno	422,5	-179,9	510,9
Davlat boshqaruv sektori	421,0	857,5	265,1
Boshqa sektorlar	-502,9	418,7	707,2
Boshqa moliyaviy tashkilotlar	4,5	3,5	1,3
Nomoliyaviy tashkilotlar, uy xo'jaliklari va UXXKNT	-507,4	415,3	705,9
D. Sof xatolar va yo'qotishlar	-37,9	373,1	-631,1
E. Umumiy balans	1 549,0	1 052,8	-1 830,0
F. Zaxiralar va ular bilan bog'liq moddalar	-1 549,0	-1 052,8	1 830,0
Zaxira aktivlari	-1 548,7	-1 083,5	1 799,9
XVJdan sof qarz jalb qilish (XVJdagi zaxira pozitsiyasidan tashqari)	0,2	-30,7	-30,1
Boshqa moliyalashtirish	0,0	0,0	0,0

Ushbu statistik hisobot to'lov balansini tuzish qo'llanmasining (TBQ 6-son, XVJ, 2009-y.) 6-nashrida keltirilgan tahliliy ko'rinishni aks ettiradi.

**2-ilova. 2023-2025-yillarning I choraklari uchun
xalqaro investitsiyaviy mavqe**
(tahliliy ko'rinishi)

(mln dollar)

Ko'rsatkichlar	01.01.2024y.	01.01.2025y.	01.04.2025y.
Aktivlar	84 883,5	96 673,0	104 596,3
To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar	209,9	243,8	251,5
Kapitalda ishtirok etish instrumentlari va investitsion fondlarning pay/aksiyalari	37,1	69,0	76,7
To'g'ridan-to'g'ri investorning to'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaga investitsiyalari	37,1	69,0	76,7
To'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaning to'g'ridan-to'g'ri investorga investitsiyasi (teskari investitsiyalash)	0,0	0,0	0,0
Qardosh korxonalar o'rtasida investitsiyalar	0,0	0,0	0,0
Qarz instrumentlari	172,8	174,8	174,8
To'g'ridan-to'g'ri investorning to'g'ridan to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaga investitsiyalari	2,5	2,6	2,6
To'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaning to'g'ridan-to'g'ri investorga investitsiyasi (teskari investitsiyalash)	0,0	0,0	0,0
Qardosh korxonalar o'rtasida investitsiyalar	170,4	172,2	172,2
Portfel investitsiyalar	2,9	3,1	3,3
Kapitalda ishtirok etish instrumentlari va investitsion fondlarning pay/aksiyalari	2,9	3,1	3,3
Markaziy bank	0,0	0,0	0,0
Markaziy bankdan boshqa depozit tashkilotlari	1,1	1,1	1,1
Davlat boshqaruvi sektori	0,0	0,0	0,0
Boshqa sektorlar	1,8	2,0	2,2
Boshqa moliyaviy tashkilotlar	0,0	0,0	0,0
Qarz qimmatli qog'ozlari	0,0	0,0	0,0
Markaziy bank	0,0	0,0	0,0
Markaziy bankdan boshqa depozit tashkilotlari	0,0	0,0	0,0
Davlat boshqaruvi sektori	0,0	0,0	0,0
Boshqa sektorlar	0,0	0,0	0,0
Boshqa moliyaviy tashkilotlar	0,0	0,0	0,0

Ko'rsatkichlar	01.01.2024y.	01.01.2025y.	01.04.2025y.
Hosilaviy moliyaviy instrumentlar (oltin valyuta zaxiralaridan tashqari) va xodimlar uchun aksiyalarning opsiyalari	0,0	0,0	0,0
Boshqa investitsiyalar	50 106,0	55 244,5	56 487,7
Boshqa kapitalda ishtirok etish instrumentlari	2,0	7,0	7,0
Qarz instrumentlari	50 104,0	55 237,4	56 480,6
Markaziy bank	0,0	0,0	0,0
Markaziy bankdan boshqa depozit tashkilotlari	3 242,7	4 061,9	4 091,8
Davlat boshqaruvi sektori	4,8	2,8	4,5
Boshqa sektorlar	46 856,4	51 172,8	52 384,4
Boshqa moliyaviy tashkilotlar	0,0	0,0	0,0
Zaxira aktivlari	34 564,6	41 181,6	47 853,8
Monetar oltin	24 632,2	32 036,7	36 880,0
Qarz olishlarning maxsus huquqlari	563,0	547,3	557,6
XVJdagi zaxira pozitsiyasi	0,0	0,0	0,0
Boshqa zaxira aktivlari	9 369,5	8 597,7	10 416,2
Majburiyatlar	72 481,7	82 866,3	87 422,3
To'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar	14 866,9	16 730,6	17 498,5
Kapitalda ishtirok etish instrumentlari va investitsion fondlarning pay/aksiyalari	11 356,8	12 188,4	12 381,4
To'g'ridan-to'g'ri investorning to'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaga investitsiyalari	11 356,8	12 188,4	12 381,4
To'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaning to'g'ridan-to'g'ri investorga investitsiyasi (teskari investitsiyalash)	0,0	0,0	0,0
Qardosh korxonalar o'rtasida investitsiyalar	0,0	0,0	0,0
Qarz instrumentlari	3 510,1	4 542,2	5 117,1
To'g'ridan-to'g'ri investorning to'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaga investitsiyalari	3 217,4	4 090,2	4 566,5
To'g'ridan-to'g'ri investitsiya kiritilgan korxonaning to'g'ridan-to'g'ri investorga investitsiyasi (teskari investitsiyalash)	0,0	0,0	0,0
Qardosh korxonalar o'rtasida investitsiyalar	292,7	451,9	550,6

Ko'rsatkichlar	01.01.2024y.	01.01.2025y.	01.04.2025y.
Portfel investitsiyalar	5 295,5	8 428,4	10 095,8
Kapitalda ishtirok etish instrumentlari va investitsion fondlarning pay/aksiyalari	123,7	116,7	120,5
Markaziy bank	0,0	0,0	0,0
Markaziy bankdan boshqa depozit tashkilotlari	57,5	75,1	76,8
Davlat boshqaruvi sektori	0,0	0,0	0,0
Boshqa sektorlar	66,3	41,7	43,7
Boshqa moliyaviy tashkilotlar	1,7	1,3	2,0
Qarz qimmatli qog'ozlari	5 171,8	8 311,7	9 975,3
Markaziy bank	0,0	0,0	0,0
Markaziy bankdan boshqa depozit tashkilotlari	1 027,7	2 340,4	2 354,2
Davlat boshqaruvi sektori	3 284,9	4 049,9	5 650,0
Boshqa sektorlar	859,2	1 921,4	1 971,2
Boshqa moliyaviy tashkilotlar	0,0	0,0	0,0
Hosilaviy moliya instrumentlar (oltin-valyuta zaxiralaridan tashqari) va xodimlar uchun aksiyalarning opsiionlari	0,0	0,0	0,0
Boshqa investitsiyalar	52 319,3	57 707,3	59 828,0
Boshqa kapitalda ishtirok etish instrumentlari	0,0	0,0	0,0
Qarz olishlarning maxsus huquqlari (majburiyatlarni sof qabul qilish)	1 068,8	1 037,4	1 056,5
Boshqa qarz instrumentlari	51 250,5	56 669,9	58 771,5
Markaziy bank	0,0	0,0	0,0
Markaziy bankdan boshqa depozit tashkilotlari	11 215,2	11 679,8	12 330,4
Davlat boshqaruvi sektori	21 353,4	25 342,8	25 821,4
Boshqa sektorlar	18 682,0	19 647,2	20 619,6
Boshqa moliyaviy tashkilotlar	114,1	119,3	125,7
Sof xalqaro investitsiyaviy mavqe	12 401,8	13 806,7	17 174,0